

**„ALPOMISH“ DOSTONIDA ISHLATILGAN AYRIM ARXAIIK
SO'ZLAR VA IBORALAR Ning ISHLATILISHI VA ULARGA SHARH.**

Abdusalomova Madina Choriyevna.

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, xorijiy til va adabiyoti ingliz tili
yo'naliishi 206-guruh talabasi.*

E-mail: madinaabdusalomova823@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada „Alpomish“ dostonida qo`llanilgan arxaik so`zlar va ularga ta`rif berib o`tilgan. Qolaversa, milliy urf-odatlar va an`analar hamda ularga tavsif berib o`tilgan.

Kalit so'zlar: Doston, urf-odat, kelin, kuyov, chimildiq, ramziy ma'nolar. It irillar, kampir o'ldi, qo'l ushlatar.

Kirish

O'zbek xalqining eng qadimgi dostonlaridan biri bo'lmish „Alpomish“ dostoni bilan tanishar ekanmiz,dostonda o'zbek xalqining azal-azaldan iyomon-e'tiqodi, ornomus birligi yo'lida o'zini ayamasligi hamda xalqimizning qadimgi urf odatlari yorqin aks etirilganligini ko'rishimiz mumkin.

„Alpomish“dostoni baxshilar tomonidan qirqdan ortiq nusxalari yozib olingan nusxalari mavjud bo'lsada, lekin Fozil Yo'ldosh o'g'li ijro etgan nusxa voqealari qiziqarliligi,ifodaning ta'sirchanligi va o'zbek xalqining ruhiyatiga xos belgilarni aks ettira olishi bilan qolganlaridan ajralib turadi.

„Alpomish“ dostonidagi qadimgi milliy urf- odatlar.

„Kampir o'ldi“ -marosimi nikoh to'yining bir qismi hisoblanadi. Bu marosim ba'zi joylarda kelinning uyida, ayrim hududlarda kelin kuyovnikiga olib kelingandan keyin amalga oshirilgan.

“Alpomish” dostonida u kelin, ya'ni Barchinning uyida amalga oshiriladi. Bu udumga ko'ra, bir kampir o'zini o'lganga solib, kuyovning yo'liga yotib oladi. Kuyov

unga biror narsa hadya qilgach, kampir "tirilib", uzoq vaqt uxlaganini va uyqusida tush ko'rganini, tushida quyosh va oyni, yulduzlarni ko'rganini aytadi. Bu tush ramziy ma'noda kelin-kuyovni va ularning bo'lajak farzandlarini anglatadi.

"It irillar" degan rasm amalga oshirilgan. Bunga ko'ra, bir necha ayollar itga o'xshab irillab, kuyovning chimildiqqa kirishiga ruxsat qilishmagan. It holatiga kirib kuyovning oldini to'sishgan.

Kuyov ularga nimadir hadya bergach, xotinlar uning chimildiqqa kirishiga qarshilik ko'rsatishmagan. Bunda it himoyachi ruh ramzini ifoda etgan.

Bu urf-odat bajarishning asosiy ramzi turkiylar mifologiyasida it obrazi muhim o'rin tutgan. Qadimgi kishilar e'tiqodiga ko'ra, it nargi dunyoda- o'liklar mulkiga kirish eshigining qo'riqchisi deb qaralgan va „it irillar" marosimi orqali qiz- yigitni, kelinlik va kuyovlik ruhiy olamiga ko'chirilish nazarda tutilgan.

„Soch siypatar" bunda kuyov o'ng qo'li bilan kelinging sochini pastdan yuqoriga qarab silaydi. Bu hayotlari tinch totuv bo'lishi, doim bir biriga g'amxo'rlik qilishini anglatadi.

„Qo'l ushlatar" bu marosim ham muhim hisoblanib, kelin va kuyov bir- birini qo'lini ushlaydi. Buning ma'nosi doim birgalikda harakat qilish, birga bo'lish, yaxshi yomon kunida qo'lini qo'yib yubormaslikni anglatadi.

References

1. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik, 1- qism. - Toshkent. 2014-yil, 8-bet.
2. Mirzayev T., Jabbor Eshonqul, Selami Fidokor. "Alpomish" dostonining izohli lug'ati.
3. Sharipova M. O'quvchi yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana va marosimlarning ahamiyati // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 2020. Т. 1. - №. 1.
11. Sharipova M. Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir xazinasi ("Alpomish" dostoni misolida) // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020.

4. Uraeva, D. S., Sharipova, M., B., Zaripova, R. I., & Nizomova, S. S. (2020). THE EXPRESSION OF THE NATIONAL TRADITIONS AND BELIEFS IN UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS. *Theoretical & Applied Science*,
5. Baxshilloyevna M. S., Shuhratovna M. S. Description and interpretation of wedding customs in the epic " Alpomish" //Middle European Scientific Bulletin.2021. T. 11. 9.